

2-TOM, 5-SON

ICHKI ISHLAR XODIMLARIDA KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRISHNING
AHAMIYATI

Shakirova Umida Abduraxim qizi

Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi;

Annotatsiya: Ushbu maqolada kreativlik tushunchasi, uning mazmuni va mohiyati tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada shaxsning, xususan ichki ishlar xodimlarining ijodkorlik, yaratuvchanlik, yangilik yaratishga qaratilgan faoliyati, kreativlik, kreativ qobiliyat, tafakkur, muloqot, xodimning o'z-o'zini shakllashtirishi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, ichki ishlar xodimi, kreativlik, ijodkorlik, yaratuvchanlik, faoliyat, qobiliyat, kreativ tafakkur.

Jahon mamlakatlari ijtimoiy hayotida kuzatilayotgan globallashtirish va ta'limning integratsiyalashuvi jarayonlari barcha sohalarda bo'lajak mutaxassislarining kasbiy-ijtimoiy tayyorgarligini rivojlantirish, ularning kasbiy faoliyatiga doir kreativlikni shakllantirish masalasi dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. Zamonaviy dunyoning innovatsiyalariga moslashish, doimiy yangilanuvchi jamiyat hayotiga yosh avlodni tayyorlash va uni zamon talablariga muvofiq takomillashtirish jarayonlarida faol ishtirok etish qobiliyatini rivojlantirish oliy ta'lim muassasasi pedagogining muhim kasbiy vazifasi hisoblanadi.

Tadqiqotimiz doirasida ichki ishlar xodimlari kasbiy faoliyatiga doir kreativlikni takomillashtirish masalasi xususida so'z borar ekan kreativlik nima? Kreativlik qanday shakllantiriladi? kabi savollarga javob berish muhim hisoblanadi.

Kreativlik - shaxsning muammoli vaziyatlardan tafakkuri orqali, takrorlanmas yo'l bilan chiqib ketish, unga ijodiylik bilan yondasha olish qobiliyati hisoblanadi.

Kreativlik tushunchasi (lot., ing. «create» –yaratish, «creative» yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilganda ijod ma'nosini anglatadi. Haqiqatdan esa yangi, original (o'ziga xos) yanada sayqallangan moddiy va ma'naviy bog'liqliklarni yaratishdir.

Kreativlikni ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib o'qituvchining kreativligiga uning fikridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'rif berish mumkin.

Tomas Edison ushbu tushunchaga munosabat bildirib, "Kreativlik – g'ayriixtiyoriy jarayon", – deydi. Kreativlik shaxs ega bo'lgan bilimning ko'pqirrali ekanida emas, balki



2-TOM, 5-SON

yangi g'oyalarga intilish, hayotiy muammolarni yechishda noodatiy yondasha olish, kutilmagan qarorlar chiqara olishda namoyon bo'ladi. Jamiyat ijtimoiy hayoti sur'atlari tezlashishi, ijtimoiy muammolar ko'lamining kengayishi barcha soha hodimlarida bo'lgani kabi ichki ishlar xodimlaridan kabiy faoliyatida kreativ fikrlashni ta'lab qilmoqda. Negaki kreativ fikrlash – murakkab sharoitlarda, yanada yaxshiroq natijaga erishishga imkon beruvchi bilim va tajribaga asoslangan real ko'nikmadir. Butun dunyoda jamiyatlar va tashkilotlar muammolarni hal etishda innovatsion bilim va yaratuvchanlikka tobora ehtiyoj sezmoqdalar[2].

Kreativ fikrlovchi insonlar biron bir manzarani o'zgacharoq tasavvur etadi, hech kim ilg'amagan jihatlarni payqay oladi. Mana shunday kreativ tafakkurni rivojlantirish tashkil etilgan darsning qaysi metod va usullardan foydalanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Bunda esa interfaol usullar yaqindan yordan beradi. Interfaol ta'lim turlaridan biri – kreativ ta'limdir.

O'zbekistonda kadrlar tayyorlashning sifat darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, har bir oliy ta'lim muassasasi jahonning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatishi, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, talabalar, ilmiy-pedagog kadrlarning zamonaviy kasbiy bilimlari va kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biridir. Prezidentimizning "2019–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonida[1] "Jamiyat va davlat hayotining barcha sohalari shiddat bilan rivojlanayotgani islohotlarni mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasi yetakchilari qatoriga kirish yo'lida tez va sifatli ilgariylashini ta'minlaydigan zamonaviy innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan holda amalga oshirishni taqozo etadi"[5], deb alohida ta'kidlangan. Bugungi kunda ijodkorlik, yaratuvchanlik, yangilik yaratishga qaratilgan faoliyat kreativ faoliyat deb tushuniladi.

Kreativlik so'zi (inglizcha "create" – yaratuvchanlik, ijodkorlik) so'zidan olingan bo'lib, shaxsning ijodkorlik qobiliyati, ijodkorlik iste'dod darajasi, shaxsning an'anaviylik yoki odat tusiga kirgan fikrlash sxemasidan uzoq bo'lgan, prinsipial yangi g'oyalarni yaratishga tayyorlikni xarakterlovchi, shuningdek, muammolarni o'zgacha tarzda bartaraf etish, iqtidorning mustaqil faktori sifatida qabul qilingan ijodiy qobiliyatlaridir. Ko'plab tadqiqotlarda intellekt va kreativlik o'rtasidagi aloqadorlik xususida turlicha qarashlar mavjud.



2-TOM, 5-SON

Bir guruh tadqiqotchilar ular o'rtasida hech qanday bog'liqlik yo'q ekanligini uqtirsalar, ikkinchi guruh vakillari kreativlik va intellekt darajasi birbiriga bog'liq ekanligini ta'kidlaydilar. "Kreativlik" tushunchasi o'zida madaniy xilma xillikni aks ettiradi. G'arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan'anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg'usi va erkinlik mavjud bo'lishiga e'tiborni qaratadilar. Aksariyat o'qituvchilar ham aslida "kreativlik" tushunchasi qanday ma'noni anglatishini yetarlicha izohlay olmaydilar. Ayni o'rinda shuni alohida qayd etib o'tish joizki, har bir shaxs tabiatan kreativlik qobiliyatiga ega. Bu o'rinda xorijlik olim Patti Drapeau shunday maslahat beradi: "Agarchi o'zingizni kreativ emasman deb hisoblasangiz-da, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor va kreativ bo'lganingiz yoki bo'lmaganingizda emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g'oyalarni amalda sinashga intilishingizdadir"[3]. Patti Drapeau nuqtayi nazariga ko'ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi[4.4].

Mushohada yuritishda masala yuzasidan bir va ko'p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo'lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, topshiriqni bajarish, masalani yechishda xodim yechimning bir necha variantini izlaydi (ko'p tomonlama fikrlash), keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi birgina to'g'ri yechimda to'xtaladi (bir tomonlama fikrlash). Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o'zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur'ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatleri, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog'liq.

Amerikalik olim D. Veksler "Kreativlik fikrning shunday turiki, u shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo'lishini taqozo etadi va shablonli, zerikarli fikrlashdan farq qilib, narsa va hodisalar mohiyatidagi o'ziga xoslik, noyoblik sifatlarini anglashga yordam beradi"[5.311] – deb ta'rif beradi.

Kreativ qobiliyatlarni faqat yangi g'oyalarni yaratish uchungina emas, balki hayot tarzini yoki alohida olingan aspektlarni yaxshilash uchun qo'llashda va shaxsning ichki dunyosini rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Kreativlik axborotni yodda saqlash va faktlarni yig'ishga asoslanganligi tufayli an'anaviy sistemasi har doim ham shaxsning, xususan xodimning kreativlik qobiliyatini rivojlantirishga qodir emas. Kundalik hayot tarzi ko'pincha shaxsning kreativ xususiyatlarining pasayishiga sabab bo'ladi[6.108]. A.X.



2-TOM, 5-SON

Maslou kreativlikda o‘z-o‘zini shakllantirishning ikki darajasini keltirib o‘tgan: birinchisi – “ixtiyorsiz kreativlik, bunda shaxs birdan aqliga kelish, ruhlanish, qiyin kechinmalarga ega bo‘ladi”, “ikkinchisi – ixtiyoriy, og‘ir mehnat bilan bog‘liq, uzluksiz ta‘lim, kamolotga intiluvchanlik”.

A.X. Maslou kreativlikni inson tabiatining fundamental xarakteristikasi sifatida ko‘radi, ya‘ni barcha insonlardagi tug‘ma qobiliyat, lekin hayoti davomida ma‘lum ijtimoiy to‘siqlar natijasida yo‘qolib ketadi, deb hisoblaydi[7.118]. T.A. Barisheva va Yu.A. Jigalovlar pedagogikada kreativlikni tizimli (ko‘p bosqichli, ko‘p o‘lchamli) psixik (ruhiy) ta‘lim sifatida talqin etib, unga faqatgina intellektual potensialni emas, balki motivatsiya, emotsiya, estetik rivojlanish darajasining mavjudligi, kommunikativ parametrlari, kompetentligi va hokazolarni ham kiritadi P. Torrensning fikricha, kreativlik: muammoga yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o‘zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qaramaqarshiligiga nisbatan ta‘sirchanlikni ifodalaydi. Torrens tomonidan bildirilgan yuqoridagi mulohaza Ichki ishlar xodimlari faoliyati uchun ham nihoyatda muhim hisoblanadi.

Ishki ishlar xodimlari o‘zlarining butun faoliyati davomida kreativlik natijasida:

- birinchidan yuzaga kelgan muammoni aniqlashda yoki uning yechimlariga doir ilmiy farazlarni ilgari surishda;
- ikkinchidan, gipotezani to‘g‘ri baholash, tekshirish va o‘zgartirishda;
- uchinchidan, qaror natijalarini shakllantirish asosida muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta‘sirchan va maqbul yeshimga keladi

Xulosa qilib aytganda, kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib va rivojlantirilib boriladi. Demak, shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi, shaxsning ijodiy salohiyati muammoga mustaqil qarash, qarama-qarshiliklar, tanqidiy fikrlash, har qanday muammolarni tahlil qilish qobiliyati, analitik fikrlash, ular uchun yechim topish qobiliyati, bilim olish, malaka, muammoga yondaashuv usullarini yangi holatga o‘tkazish imkoniyati, ilgari o‘rganilgan usullarni yangilarga birlashtira olish kabi ko‘nikmalarda namoyon bo‘lishi mumkin.



2-TOM, 5-SON

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2018-yil 21-sentabr, PF-5544-son Farmoni.
2. OECD (2010), The OECD Innovation Strategy: Getting a Head Start on Tomorrow, OECD.
3. Гоноболин Федор Никанорович - Воспитание школьника. - 1971. М.- № 2.
4. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.
5. Karimova, M., & Tuychieva, R. (2019). THE PEDAGOGICAL BASICS OF TRAINING STUDENTS FOR PROFESSIONAL, MORAL AND EDUCATIONAL FUNCTION. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(10), 311-317.
6. Маслоу А.Г. Самоактуализация // Психология личности: Тексты. –М., 1982. –с. 108-118.
7. Утёмов В.В., Зинковкина М.М., Горев П.М. Педагогика креативности: прикладной курс научного творчества / Учеб.пособие. – Киров: АНОО “Межрегиональный ЦИТО”, 2013. – С. 16.

